“Jismoniy şaxslar uçun milliy valyutadagi
“Ustuvor.UZ” hamda elektron oferta asosida qöyiladigan
“Onlayn-Ustuvor.UZ” muddatli bank omonatlari böyiça
operatsiyalarni amalga oşiriş tartibi”ga
2-ILOVA

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankida “Trastpay” mobil-ilovasi orqali pul mablağini milliy valyutadagi “Onlayn-Ustuvor.UZ” muddatli onlayn-omonatga joylaştiriş xizmatini körsatiş böyiça**
**ELEKTRON OFERTA**

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining bank xizmatlari ofisi (keyingi örinlarda – Bank), bir tarafdan, va Bank yoki boşqa tijorat banki tomonidan muomalaga çiqarilgan bank kartasining egasi bölgan hamda quyida taklif qilinayotgan Elektron oferta şartlarini tölaligiça va sözsiz qabul qilişini elektron şaklda akseptlaş orqali bildirgan jismoniy şaxs (keyingi örinlarda – Omonatçi), ikkinçi tarafdan, Özbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367, 369 va 370-moddalariga muvofiq quyidagilar haqida mazkur Elektron ofertani tuzdik.

**1-§. Elektron oferta predmeti**

1. Omonatçi Elektron ofertani akseptlagandan söng, bank kartasi hisobvarağidagi pul mablağini “Trastpay” mobil-ilovasi vositasida “Onlayn-Ustuvor.UZ” muddatli onlayn-omonatga (keyingi örinlarda – onlayn-omonat) ötkazadi.

2. Bank Elektron ofertaga asosan Omonatçi tomonidan ötkazilgan pul mablağini onlayn-omonatga qabul qiladi, unga foiz hisoblaydi va muddati tugaganda uni qaytaradi hamda Omonatçining mazkur onlayn-omonat hisobvarağini masofadan turib boşqarişiga ruxsat beradi.

**2-§. Elektron ofertani akseptlaş tartibi**

3. Omonatçi pul mablağini onlayn-omonatga joylaştirsa, bu Omonatçining Bank tomonidan taklif etilgan onlayn-omonat va uşbu Elektron oferta şartlariga hamda pul mablağini onlayn-omonatga joylaştiriş xizmatini körsatiş qoidalariga roziligini bildiradi.

4. Onlayn-omonat va uşbu Elektron oferta şartlari ma’qul kelmasa, Omonatçi “Trastpay” mobil-ilovasi orqali pul mablağini onlayn-omonatga joylaştirişdan voz keçişini bildiradi.

5. Omonatçiga onlayn-omonatning oçilişi va unga Omonatçining pul mablaği joylaştirilişi uşbu Elektron ofertaning akseptlanganligini bildiradi. Omonatçining pul mablaği onlayn-omonatga joylaştirilgan paytdan boşlab uşbu Elektron oferta tuzilgan hisoblanadi.

**3-§. Onlayn-omonat şartlari va hisob-kitoblar tartibi**

6. Onlayn-omonatning minimal qiymati: 1 000 000 (bir million) söm.

7. Onlayn-omonat muddati dastlabki badal omonat hisobvarağiga kirim qilingan kundan boşlab 18 (ön sakkiz) oyni taşkil etadi.

8. Omonatga yilda 365 kun hisobidan yillik ___ foizlik stavkada daromad hisoblanadi.

9. Onlayn-omonatga dastlabki 12 oy davomida qöşimça badal kiritilişi mumkin. Qöşimça badallar kiritilişi omonatning dastlab belgilangan muddatini özgartirmaydi.

10. Onlayn-omonatga qöyilgan pul mablağlarini omonatga qöyilgan kundan boşlab 1 (bir) oy ötgandan söng omonat muddati tugagunga qadar qisman yeçib oliş imkoniyati mavjud. Bunda omonatdagi mablağ qoldiği 5 000 000,0 (beş million) sömdan kam bölmasligi lozim.

11. Uşbu Elektron oferta böyiça jalb qilingan onlayn-omonatning foiz stavkasi uning muddati tugagunga qadar özgarmaydi.

12. Onlayn-omonat böyiça foizlar mablağlar omonat hisobvarağiga kirim qilingan kunning

ertasidan boşlab, ular Omonatçiga qaytarilgan yoki qonunçilikda nazarda tutilgan boşqa asoslarga köra hisobvaraqdan çiqarilgan kundan oldingi kungaça hisoblanadi.

Omonatçining onlayn-omonat hisobvarağidagi pul mablağlari qonunçilikda belgilangan tartibda xatlanganligi sababli Bank uşbu mablağlardan foydalana olmagan davr uçun foizlar hisoblanmaydi.

13. Onlayn-omonat böyiça hisoblangan foizlar har oyda omonat qabul qilingan sanadan keyingi kunga mos keluvçi kalendar sanada milliy valyutada tölanadi. Tegişli oyda bunday sana mavjud bölmasa, foizlar keyingi oyning birinçi kalendar kunida tölanadi.

Onlayn-omonat böyiça hisoblangan foiz Omonatçining talab qilib olingunça saqlanadigan omonat hisobvarağiga (20206000) avtomat tarzda ötkazib beriladi.

Agar Omonatçi Özbekiston Respublikasi norezidenti bölsa, Bank omonat böyiça foizlar körinişidagi daromaddan soliqni qonunçilikda belgilangan tartib va miqdorda uşlab qoladi hamda budjetga ötkazadi.

14.Onlayn-omonatning muddati tugagandan söng onlayn-omonatdagi mablağ Omonatçining talab qilib olingunça saqlanadigan omonat hisobvarağiga (20206000) avtomat tarzda ötkaziş orqali, Omonatçiga qaytariladi.

15. Omonatçi onlayn -omonatni muddati tugamasdan töliq qaytarmoqçi bölsa, u bu haqda Bankni omonatni olişni möljallagan sanadan kamida bir oy oldin ogohlantiradi. Bunda omonat şartnomasining amal qilişi töxtatiladi, omonat muddatidan oldin qaytariladi va omonatga hisoblangan foizlar quyidagi şartlarga muvofiq qayta hisoblanadi va tölanadi:

a) omonat 6 oydan kam muddat davomida turgan bölsa, hisoblangan foiz tölanmaydi;

b) omonat 6 oydan 18 oygaça saqlangan bölsa, yillik __ (_____) foiz;

Bunda omonat mablağidan oldin tölab berilgan foizlar bilan hisoblangan foizlar örtasidagi farq summasi omonat mablağidan uşlab qolinadi.

16. Onlayn-omonat hisobvarağidan mablağ Bank tomonidan quyidagi hollarda Omonatçi topşiriğisiz hisobdan çiqariladi:

a) vakolatli davlat organining qaroriga asosan;

b) Omonatçining kredit va unga tenglaştirilgan boşqa majburiyatlar böyiça qarzdorligi, sudning qaroriga muvofiq, söndirilganda.

17. Onlayn-omonatning muddati tugagandan söng uşbu Elektron oferta muddatini uzaytiriş közda tutilmagan.

18. Onlayn-omonatdan boşqa bank tomonidan emissiya qilingan bank kartasiga pul mablağlari ötkazilgan, Bankning amaldagi tariflarida belgilangan miqdorda komissiya tölovi undiriladi.

## 4-§. Taraflarning huquq va majburiyatlari

19. Bankning huquqlari:

a) onlayn-omonat muddatidan oldin qaytarilganda mazkur şartnomaning 15-bandiga muvofiq Omonatçi bilan qayta hisob-kitob qiliş;

b) qonunçilikda belgilangan asoslar va tartibda onlayn-omonat operatsiyasini amalga oşirişni rad etiş, operatsiyani vaqtinça töxtatiş yoki pul mablağlaridan foydalaniş va ularni tasarruf etişni çeklaş çoralarini qöllaş.

d) Omonatçining onlayn-omonat hisobvarağidan boşqa tijorat bankining bank kartasiga pul mablaği ötkazilganda Bank tariflariga köra vositaçilik haqi undiriş.

e) Omonatçi Özbekiston Respublikasi norezidenti bölsa, Bank onlayn-omonat böyiça foizlar körinişidagi daromaddan soliqni qonunçilikda belgilangan tartib va miqdorda uşlab qoladi hamda budjetga ötkazadi.

20. Bankning majburiyatlari:

a) Omonatçi onlayn-omonatni muddati tugamasdan qaytarişni talab qilganda, uni uşbu Elektron ofertaning 15-bandiga muvofiq, muddatidan oldin qaytarib beriş;

b) Onlayn-omonatni sir saqlaş va u böyiça ma'lumotlarni faqat Özbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida közda tutilgan hollarda taqdim etiş;

d) Omonatçining onlayn-omonat hisobvaraği böyiça operatsiyalar Bank tomonidan töxtatilganda, operatsiyalar töxtatilgan kundan keyingi iş kunidan keçiktirmay Omonatçiga bu haqda va operatsiyalar töxtatilişining sabablari töğrisida xabarnoma yuboriş. Bunda qonunçilikka muvofiq oşkor etilişi taqiqlangan yoki çeklangan ma'lumotlar Omonatçiga taqdim etilmaydi;

e) Omonatçining kredit va mikroqarz böyiça qarzdorligini söndiriş uçun uning onlayn-omonat hisobvarağidan mablağ Bank tomonidan Omonatçining topşiriğisiz hisobdan çiqarilganda, mablağ hisobdan çiqarilgan sanadan boşlab keyingi iş kunidan keçiktirmagan holda Omonatçiga uning onlayn-omonat hisobvarağidan qança miqdordagi mablağ qanday sababga asosan va kimning foydasiga çiqarilganligini körsatgan holda xabarnoma yuboriş.

21. Omonatçining huquqlari:

a) uşbu Elektron ofertani akseptlaş böyiça mustaqil qaror qabul qiliş;

b) mazkur Elektron oferta şartlari doirasida onlayn-omonatni mustaqil tasarruf etiş va masofadan turib boşqariş.

22. Omonatçining majburiyatlari:

a) uşbu Elektron oferta şartlari bilan tanişiş;

b) bank kartasi hisobvarağida onlayn-omonat oçiş uçun etarli miqdorda pul mablağiga ega böliş;

d) oferta omonati hisobvarağidan amaliyotlarni amalga oşiriş jarayonida "TrastPay" mobil-ilovasidagi uzilişlar yoki texnik nosozliklar haqida Bankka telefon orqali xabar beriş;

e) "TrastPay" mobil-ilovasiga kiriş uçun berilgan login, parol va ŞIR-kodni uçinçi şaxsga oşkor qilmaslik.

## 5-§. Taraflarning javobgarligi

23. Taraflar mazkur Elektron oferta böyiça majburiyatlarini bajarmaganliklari uçun Özbekiston Respublikasi qonunçiligiga muvofiq javobgar böladilar.

## 6-§. Fors-major holatlar

24. Taraflar fors-major holatlar amal qilgan davrda mazkur Elektron oferta böyiça öz majburiyatlarini bajarmaganliklari uçun qonunçilikda nazarda tutilgan tartibda javobgarlikdan ozod qilinişi mumkin.

Fors-major holatlarga şartnoma böyiça majburiyatlarni bajarişga bevosita ta'sir körsatadigan, taraflarning nazoratidan taşqaridagi favqulodda va oldini olib bölmaydigan holatlar, jumladan, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar hamda davlat organlarining qonuniy çeklovçi çoralari kiradi.

Fors-major holatlar yuzaga kelganda va töxtaganda taraflar bir-birini xabardor qiladilar. Xabarnoma taraflarda mavjud bölgan barça aloqa vositalari orqali yuborilişi mumkin (SMS va MMS xabarlari bundan mustasno).

Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda taraflar majburiyatlarni bajariş muddatlarini fors-major holatlar davom etgan davrga mutanosib ravişda uzaytiradilar.

## 7-§. Boşqa şartlar

25. Omonatçi ötkazgan pul mablağı Bankdagi onlayn-omonat hisobvarağiga naqd pulsiz körinişida kelib tuşgan kundan boşlab Elektron oferta tuzilgan hisoblanadi.

26. Mazkur Elektron oferta 20-bandining "d" va "e" kiçik bandlarida nazarda tutilgan,

qonunçilik böyiça yuborilişi mumkin bölgan xabarnomalar Omonatçining mobil telefon raqamiga SMS-xabar orqali yetkaziladi.

27. Bank mazkur Elektron oferta şartlariga Omonatçining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan özgartirişlarni bir tomonlama kiritişga haqli emas.

28. Omonatçining mazkur Elektron oferta böyiça omonati Özbekiston Respublikasining “Banklardagi omonatlarni himoya qiliş kafolatlari töğrisida”gi Qonuniga muvofiq kafolatlanadi. Kafolatlaş hodisasi yuz berganda, bir bankdagi bir omonatçiga tölanadigan jami kompensatsiya mazkur Qonunda nazarda tutilgan istisnolarni hisobga olgan holda 200 000 000 (ikki yuz million) sömdan oşmaydi. Kompensatsiya qonunçilikda belgilangan tartibda milliy valyutada tölanadi.

29. Mazkur Elektron ofertada nazarda tutilmagan masalalar qonunçilikka muvofiq hal etiladi.

30. Taraflar mazkur Elektron ofertadan kelib çiqadigan nizolarni muzokaralar yöli bilan hal etiş çoralarini köradilar. Muzokaralar yöli bilan hal etilmagan nizolar qonunçilikda belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.